Aholini ro'yxatga olish esa keng miqyosda olib boriladi. Aholi ro'yxati paytida ma'lum dastur asosida aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi. Masalan, xonadonda necha kishi yashaydi, ularning tug'ilgan yili, oyi, kuni, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, ona tili, ijtimoiy holati, farzandlar soni, yoshi va umuman aholiga doir barcha ma'lumotlar chuqur o'rganiladi. Aholini ro'yxatga olish odatda ko'p mamlakatlarda har besh yoki o'n yilda bir marotaba o'tkaziladi. Aholini

ro'yxatga olish dasturi yoshi, millati, tillarni bilishi, ma'lumoti, yashash sharoitlari, yashash uchun mablag'lar manbalari va boshqa masalalarni o'z ichiga oladi. So'rov davlat tilida olib boriladi. Davlat tilini bilmaydigan respondentlar o'z ona tillarida yoki boshqa erkin tanlangan muloqot tilida so'rovda ishtirok etishlari mumkin. Ro'yxatga olish bo'yicha yakuniy ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslar uchun ochiq bo'ladi hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinib, Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga joylashtiriladi.

Ta'kidlash joiz, O'zbekiston hududida oxirgi to'la aholi ro'yxati 1989-yili o'tkazilgan edi. Shu bois, aholini har yili hisobga olish va aholini ro'yxatga olish bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim, chunki o'tgan yillar davomida tug'ilganlar, o'lganlar, ko'chib kelganlar, ko'chib ketganlar soni aniq bo'lsa, aholi soni o'tgan davrda qanchaga yetganligi yoki kamayganligi ma'lum bo'ladi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda, tarixiy demografiya va demografik tarix fanlari chorrahasida joylashgan manbalar tahlilidan, sotsiologiyani o'qitish uslublaridan ham foydalanildi.

Ayni paytda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan butun dunyo aholisini hisobga olish tadbirlari olib borilgan. BMT tomonidan har yili yillik demografik to'plam nashr etiladi. Aholi ro'yxati ma'lum bir davrda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar baholanadi, tahlil qilinadi va natijalari chop etiladi. Aholi ro'yxati paytida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar mamlakatning har bir fuqarosi bilan suhbat asosida yig'iladi. Aholini ro'yxatga olishdan maqsad aholi soni, tarkibi, aholining joylashuvi, ijtimoiy holati kabi bir qancha ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Bu ma'lumotlar har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida katta o'rin tutadi. Ushbu sabab tufayli, aholiga doir barcha ma'lumotlar faqatgina aholini ro'yxatga olish jarayonida to'planib, tahlil qilinadi va turli tadqiqotlarda o'rganiladi [18].

Manbalarda keltirilishicha, XIX asrga kelib, aholini ro'yxatga olish juda kengaydi. Qator Yevropa mamlakatlarida statistika tashkilotlari tuzildi. Aholini ro'yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borilishi yo'lga qo'yildi. Xususan, 1870-1879-yillarda dunyoning 48 ta, 1890-yillarda esa 57 ta davlatida aholi ro'yxati o'tkazilgan. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro'yxatga olingan bo'lsa, XX asr boshida 54 foiz aholi ro'yxatdan o'tkazilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, aholini ro'yxatga olish tizimi yanada takomillashtirildi. 1945-1954-yillarda 151 ta davlatda, 1965-1974-yillarda 179 ta davlatda aholi ro'yxati o'tkazilgan.

Zamonaviy bosqich XX asrning o'rtalaridan boshlandi. Osiyoning qator mamlakatlarida, shuningdek, Afrikada aholini ro'yxatga olish o'tkazildi. Bu yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. O'tgan asrning 70-yillarida Yaman, BAA, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda birinchi marotaba aholi ro'yxatdan o'tkazildi. XX asrning oxiriga kelib, aholini ro'yxatga olish dunyoning deyarli barcha hududini qamrab oldi. Hozirgi paytda, dunyodagi deyarli barcha davlatlarda aholini ro'yxatga olish ishlari olib borilmoqda. Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida aholi o'rtacha har o'n yilda kamida bir marta ro'yxatdan o'tkazilmoqda.

Respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o'rganishda mamlakat hududida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxati 1897 yilda Turkiston general-gubernatorligi tomonidan o'tkazilgan. Bu boradagi ma'lumotlar XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar (va aholi) soni, yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tassavvur hosil qilishga yordam bergan. O'zbekiston hududida keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda aholini ro'yxatga olish ishlari tashkil etilgan. Respublikamizda oxirgi marta aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilganligiga 35 yil bo'ldi. Buning natijasida aholining haqiqiy hayot tarzini o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatishda qator qiyinchiliklar vujudga keldi.

Eng yangi zamonda BMT, 2015-yilning 10-iyunida "2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyusiyasini qabul qildi. Unga ko'ra, BMTga a'zo davlatlar kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yildi. Bugungi kunga kelib, MDH davlatlarida, shuningdek Yangi O'zbekistonda ham bu jarayonga tayyorgarlik ishlari boshlandi.

Prezidentimizning 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [19], keyinchalik 2019-

yilning 16 mart kuni imzolangan "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun [20] bu borada huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun aholini ro'yxatga olish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning maqsadi, asosiy prinsiplari, tartibi, davri va muddatlarini belgilab bergan. Qonunda belgilab berilganidek, aholini ro'yxatga olish - belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayonidir. Bu jarayon respublika bo'ylab yoki uning muayyan hududlarida har o'n yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan.

"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun [20] asosiy maqsadi, aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sosial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir. Aholini ro'yxatga olish shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish amalga oshiriladigan savollar ro'yxati belgilangan dastur bo'yicha o'tkaziladi, unda quyidagi savollar bo'lishi shart: FIO, tug'ilgan sanasi va joyi, yoshi, jinsi, millati, fuqaroligi, yashash joyi (turgan joyi), tillarni bilishi, ma'lumoti, nikoh holati, bolalarining soni, uy xo'jaligi tarkibi, uy-joy sharoitlari, bandligi, yashash uchun mablag'lar manbalari, migrasiya (ichki va tashqi). Hukumat tomonidan dasturga qo'shimcha ravishda boshqa savollar kiritilishi mumkin, biroq unga kiritilmagan savollarni berish taqiqlanadi. Yig'ilgan barcha shaxsiy ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi hamda respondentning roziligisiz ularni oshkor etish va tarqatishga yo'l qo'yilmaydi. Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risidagi taklif Hukumat tomonidan Prezidentga, qoidaga ko'ra, rejalashtirilayotgan sanadan uch yil oldin kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevralidagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida [19] aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning maqsadi, asosiy vazifalari, bosqichlarini belgilab berilgan. Unga ko'ra, mazkur jarayon uch bosqichni qamrab oladi. Birinchisi – tayyorgarlik bosqichi. Bu uch yilga yaqin vaqt davom etadi.

Bunda, aholini ro'yxatga olish jarayonlarida faol ishtirok etishi bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, reklama roliklari, logotip va shiorlar ishlab chiqish hamda aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlar, jumladan, ro'yxatga olish varaqalari, ro'yxatga olishni tashkil etish va o'tkazish, uning natijalarini olish va e'lon qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Ikkinchisi – asosiy bosqich 10 kundan 60 kungacha davrni o'z ichiga oladi. Bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvini o'tkaziladi va ro'yxatga olish materiallari topshiriladi.

Uchinchi bosqichda aholini ro'yxatga olishga doir birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmalar tomonidan qabul qilib olinadi, olingan materiallar avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashga tayyorlanib, birlamchi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan dasturlarga kiritish uchun kodlanadi, nazorat va tahrir qilinadi, aholini ro'yxatga olish bo'yicha dastlabki natijalar olinib, olingan natijalar e'lon qilinadi va tarqatiladi. Mazkur bosqich ikki yildan uch yilgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi.

Respublika miqyosida aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati xodimlari ishtirok etadi, hududlarda ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, materiallarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash, dastlabki yakunlarni sarhisob qilish va natijalarni e'lon qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo'limlari xodimlari jalb etiladi.

Shuningdek, aholi ro'yxatini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish yoki uni o'tkazishda ishtirok etishga rozi bo'lgan taqdirda, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va yuqori kurs talabalari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'qituvchilari ham ushbu jarayonga jalb qilinishi mumkin. Ular orasidan ro'yxatga olish uchastkalari mudirlari, instruktorlar va ro'yxatga oluvchilarni tanlab olish tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan davlat

statistikasining hududiy organlari bilan birgalikda shartnoma asosida tashkil etiladi. Vaqtinchalik jalb etiladigan xodimlarga ismlari yozilgan nishonlar (guvohnomalar) beriladi. Bunda xodimning yashash joyi tekshirilayotgan aholi punktiga qatnash uchun qulay bo'lishi kerak.

Aholini ro'yxatga oluvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar va video darsliklar ishlab chiqiladi hamda qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi. Zarur hollarda, ularga qo'shimcha maslahatlar beriladi.

Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga hamda ma'lumotlarni qayta ishlashga jalb etilgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan normativlar asosida amalga oshiriladi. Jarayonni Davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Aholini ro'yxatga olish yana bir jihati bilan muhim. Uning yakuniga yetkazilishi hududlarni xaritalash, aholi punktlaridagi uylar ro'yxatini tuzish imkonini beradi. Yana ham aniqroq aytganda, turar va noturarjoylarning aniq soni, holati, foydalanilmay yotgan yoki muddatini o'tab bo'lgan binolarni belgilab olish bilan tegishli hududlarda uy-joy, sanoat obyektlarini qurish va ta'mirlash masalalariga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Qisqacha aytganda, respublikaning yangi mukammal kadastr xaritasi yaratiladi.

Sotsiologiyani o'qitishda mamlakatda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarini o'rganish tahlili va natijalari ifodalaydiki, aholini ro'yxatga olish natijalari jamiyatimizni yanada kuchaytirishga imkoniyat, O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish ishlarini 2025-2026-yillarda o'tkazilishini amalga oshirishga xizmat qilishi belgilandi [1]. Bu jarayonga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha, xususan, 2021-yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish savollari shakllarini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish kerakligi bildirilgan edi. Bundan avval, koronavirus pandemiyasi tufayli mazkur tadbirni o'tkazish muddati uzaytirilib, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabridagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, respublikada aholini ro'yxatga olish ishlari 2023-yilning 1-25-noyabrida o'tkazilishi belgilandi [21]. O'sha paytda aholini ro'yxatga olish tadbiri faqat aholi sonini aniqlash bilan cheklanmasdan, uy-joy, bandlik, oilaviy holat, turmush farovonligi kabi bir nechta mezonlarni aniqlashtirishga xizmat qilishi bilan ham rejalashtirilgandi.

Vaholanki, jahon tajribasi va mamlakatimizda bu tadbir birinchi bor o'tkazilayotganini hisobga olib, 2021-yilda "O'zbekistonning bir qismi bo'lib" shiori asosidagi tadbir ikki bosqichda o'tkazildi. Ya'ni, birinchi bosqichda 1-10-noyabr kunlari fuqarolar ixtiyoriy ravishda va internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishi belgilandi, ikkinchi bosqich – 11-noyabrdan xonadonlarda ro'yxatga olish ishlari olib borildi. Aholini ro'yxatga olish uchun so'rovnoma 53 ta savol kiritildi. Ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash uchun Samarqand viloyatining Narpay va Jomboy tumanlaridan boshqa barcha hududlarida statistika bo'limlarining binolari va arxiv xonalari tashkil etildi. Bundan tayyorgarlik ishlari respublikaning barcha hududlarida ham olib borildi. Masalan, 2021-yil 1-25-noyabr kunlari Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi [22].

Ro'yxatga olish jarayonlari 3 xil usulda, ya'ni internet tarmog'i orqali, planshet va qog'oz usullarida tashkil etildi. Sinov jarayonlarida planshet usulida aholini ro'yxatga olish qog'oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanini ko'rsatdi. Ma'lumki, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish ishlariga sarflanadigan mablag' miqdori aholi jon boshiga o'rtacha 3 AQSH dollaridan to'g'ri kelishi mumkinligi aytilgan edi. Bu xarajatlar davlat byudjetidan qoplanishi ham belgilandi [23]. Shuni e'tiborda tutish zarurkim, O'zbekistondagi aholining ro'yxatini tuzish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqishda Rossiya Federasiyasi, Belorussiya, Qirg'iziston, Armaniston, Tojikiston, Moldova, Buyuk Britaniya, Litva, Latviya kabi qator davlatlarning amaliyoti o'rganilgan edi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Statistika agentligi xalqaro tajriba va ekspertlarning tavsiyalari asosida "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimini takomillashtirish va ro'yxatga olish natijalarining

chiquvchi jadvallari namunalarini shakllantirish, shuningdek, aholini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqishlari juda kerak. Shu bois, aholini ro'yxatga olish 2025-2026-yillarda o'tkazilishi, natijalari esa 2026-2027-yillarda tayyorlanishi va e'lon qilinishi rejalashtirilgan.

Sotsiologiya fanining vazifalari ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy ehtiyojlarini yaxlit holda tahlil etish bilan belgilanadi. Sotsiologiya fanining muammolari esa, O'zbekistonning rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan bugungi kunga bog'liq, olimlarning izlanishlari, fidoyiligidan, yuksak ijodkorligidan, qobiliyat va ilmiy izlanishlari samaradorligi bilan bog'liq. Bugungi kunda sotsiologiya fani bir qator vazifalar yechimini topishga urinmoqda, jumladan insonlar dunyoqarashini shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, fuqarolarimiz totuvligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi omillar va dunyo siyosiy hayotidagi jarayonlar, voqyealar, hodisalar ta'siriga xolisona baho berishdir. Shuningdek, tadqiqotning asosiy qismida ta'kidlanganidek, O'zbekiston hududida oxirgi to'la aholi ro'yxati 1989 yili o'tkazilgan. Mustaqillik yillarida esa, ma'lum bir hududlar tanlanib, tanlanma aholi ro'yxati o'tkazilgandi.

Mavjud muammolar yechimini topish uchun obyektiv sotsiologni yaratish, buning uchun jamiyatimizda ustivor bo'lgan ijtimoiy-demografik guruhlarining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish lozim. Maxsus e'tiborni zamonaviy ijtimoiy institutlar muammolariga qaratish – oila, mahalla, maktab, o'rta va oliy ta'lim tizimidagi yoshlar, ommaviy axborot vositalari, hamda tadbirkorlarning ijtimoiy moslashuvlariga sotsiologik tadqiqotlarni yo'naltirish, bashorat qilishni asoslashni talab qiladi.

Xullas, O'zbekistonda sotsiologiya fanining keyingi rivojlanishida yuqori malakali mutaxassis sotsiologlar va amaliyotchi tadqiqotchi kadrlarni tayoyrlashni kuchaytirish nihoyatda muhimdir.

O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi nihoyatda dolzarbdir. Bundan oldin obyektiv va texnik sabablarga ko'ra, umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishiga imkoniyat bo'lmagandir, ammo kelajakda moddiy ahvol yoki boshqa ichki, turli ijtimoiy holatlarning ta'siri ro'y bermasin, ushbu tadbirni albatta amalga oshirish kerak. Vatanimiz tarixiy-demografik rivojlanishida va sotsiologiya fani o'qitilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu mavzu, kelgusida xalqaro hamjamiyat tomonidan albatta qo'llab-quvvatlanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2024 й. ПҚ-114-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%>
2. Умумий социология. Дарслик//Илмий муҳаррирлар: Н.С.Алиқориев, Р.Т.Убайдуллаева. – Тошкент, ТошДУ нашри. 1999 йил, - 183 бет.
3. Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М., Ота-Мирзаев О.Б., ва бошқалар. Социология. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2002.
4. Qirg'izboyev M. Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 464 b.
5. Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун қўлланма/Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Т.: Шарқ, 2002. – 848 б.
6. Negmatov I. Ijtimoiy ish nazariyasi va tarixi. Darslik. Samarqand.: SamDU. 2023. 436 bet.; G'aniyeva M.H., Latipova N.M., Negmatov I., Sherov M.B. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2015. – 352 b; Негматов И. Ижтимоий ишнинг этик-профессионал кадриятлари. Ўқув қўлланма.Самарқанд, 2020.
7. Normamatova M.N. Ijtimoiy ish nazariyasi. Darslik. – SamDU, 2023. – 303 b.; Нормаматова М.Н. Акмеология. Услугий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 104; Normamatova M.N. Оила ва болаларга тиббий, психологик ёрдам кўрсатишнинг илмий асослари. Услугий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 62; Нормаматова М.Н. Ижтимоий иш назарияси Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. – Б. 274;

Нормаматова М.Н. Девиант хулк атвор социологияси. – Самарқанд: СамДУ нашриети, 2022. - 289 б.

8. Tagieva G.G., Husanova H.T. Oila va gender sotsiologiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 304 bet; Тагиева Г.Г., Латипов Р.М., Хужанов З.Б. Социология. Ўқув кўлланма. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2020; Тагиева Г.Г., Латипова Н.М. Ёшлар социологияси. Ўқув кўлланма. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2020.

9. Sherov M.B. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi. Darslik. Samarqand: SamDU. 2023. 310 bet.; Sherov M.B. Sotsiologiya tarixi. Darslik. Samarqand: SamDU. 2023. 324 bet; G'aniyeva M.H., Qayumov Q.N., Sherov M.B. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2020. – 259 b.

10. Бахриева Д.Х. Социальная работа с различными группами населения. Учебное пособие. - Samarqand. SamDU nashri. 2023; Намунаи ҳамкориҳои азали ва абади дар симои Абдурахмони Ҷомӣ ва Алишер Навоӣ. Международное сотрудничество вузов важный фактор повышения качества образования. Материалы международной научно-практической конференции. Худжанд, 2018. - С.465-467.

11. Tangirova M.I. Turli guruh va qatlamlar bilan ijtimoiy ish olib borish. Darslik. – Samarqand: SamDU, 2023. – 280 b; Tangirova M.I. Turli guruh va qatlamlar bilan ijtimoiy ish olib borish. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2022.

12. Yusupov R.K. Gerontologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023, – 204 bet.; Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 208 b.

13. Социологияни ўқитиш ва социологик тадқиқотларни ташкил этишининг долзарб масалалари. Республика илмий – амалий конференция материаллари тўплами.–Тошкент: УзМУ; 2018 й.; «Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J.Kholbekov. - Toshkent: O'zMU, 2023. – 310 b.; Рақамли ижтимоий иш ва аҳоли химояси: муаммолар, ечим, истиқболлар. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2023 й. – 220 б.; “Oliy ta'lim muammolari va ijtimoiy-gumanitar bilimlarning zamonaviy an'analari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. -204 b.

14. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2024 й. ПҚ-114-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори [https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%](https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%;); Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.02.2019 йилдаги ПФ-5655-сон // <https://lex.uz/docs/4190059#:~:text=> ; O'zbekistonda aholini ro'yxatdan o'tkazish yana kechiktirilishi mumkin. Bu texnik sabab bilan izohlanmoqda// <https://kun.uz/news/2023/07/29/ozbekis> ; Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>

15. Убайдуллаева Р.Т. Гуманистическая Социология: Теория, методология и метод. – Тошкент «Университет», 2010.

16. Бергер П.Л. Приглашение в социологию. Гуманистическая перспектива. – М.: Аспект Пресс, 1996.

17. Ганиева М.Х. Социология в Узбекистане: состояние и перспективы. https://www.researchgate.net/publication/336530952_MGanieva_SOCIOLOGIA_V_UZBEKISTANE_SOSTOANIEI_PERSPEKTIVY#:~:text=http%3A%2F%2Flex.uz,-21

18. Демографический энциклопедический словарь/Редкол.: Валентей Д.И. (гл.ред.) и др. - М.: Сов. энциклопедия, 1985. – 313-325 стр.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.02.2019 йилдаги ПФ-5655-сон // <https://lex.uz/docs/4190059#:~:text=>

20. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>

21. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори Ўзбекистон Республикасида 2023 йилда аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида. <https://lex.uz/docs/5093951#:~:text=>

22. О‘zbekistonda aholini ro‘yxatdan o‘tkazish yana kechiktirilishi mumkin. Bu texnik sabab bilan izohlanmoqda// <https://kun.uz/news/2023/07/29/ozbekistonda-aholini-royxatdan-otkazish-yana-kechiktirilishi-mumkin-bu-texnik-sabab-bilan-izohlanmoqda#:~:text=O%E2%80%98zbekistonda%20aholini%20ro%E2%80%98yxatdan,%23demografiya>

23. Aholini ro‘yxatga olish qanchaga tushadi?// <https://kun.uz/37014984#:~:text=>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000